

Haq to'lanadigan stajirovka: huquqiy asoslari, ijtimoiy ahamiyati va dolzarb muammolar

Xayriddin Sirojiddinovich Fayziyev
Shaxzod Abbas o'g'li Nurnazarov
shaxzodnurnazarov@gmail.com
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu - ularni mehnat bozoriga tayyorlash, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va amaliyot orqali malakasini oshirishdan iboratdir. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning stajirovka (amaliyot) jarayonlari ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: stajirovka, huquqiy asos, davlat siyosati, mehnat bozori

Paid internship: legal basis, social significance and current problems

Khayriddin Sirojiddinovich Fayziyev
Shakhzod Abbas oglu Nurnazarov
shakhzodnurnazarov@gmail.com
Tashkent State University of Law

Abstract: One of the priority areas of state policy for young people in our country is their preparation for the labor market, the formation of professional skills and improving their qualifications through practice. In particular, the internship (practical) processes of students studying in higher educational institutions play an important role in combining their theoretical knowledge with practice.

Keywords: internship, legal basis, state policy, labor market

So'nggi yillarda dunyo amaliyotida keng tarqalgan "haq to'lanadigan stajirovka" instituti O'zbekistonda ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bunda stajyor (talaba) o'z amaliy faoliyati uchun qonuniy asosda ish haqi oladi, bu esa ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlashga, yoshlarning mehnat huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada haq to'lanadigan stajirovka tushunchasining huquqiy asoslari, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati hamda O'zbekistondagi dolzarb muammolar yoritiladi.

Asosiy qism

1. Haq to'lanadigan stajirovka tushunchasi va huquqiy asoslari

Stajyor (lot. stagiarius - amaliyotchi) - bu kasb-hunar yoki oliy ta'lim muassasasining bitiruvchisi yoki talabasining amaliy bilim va ko'nikmalarni olish maqsadida muayyan korxona yoki tashkilotda vaqtincha ishlovchi shaxsidir. Odatda, stajirovka muddati davomida ularning faoliyati vaqtincha xarakter kasb etadi.

Haq to'lanadigan stajirovka - bu stajyorning mehnat faoliyati doirasida belgilangan ish hajmi uchun belgilangan tartibda pul mukofoti yoki ish haqi olishini nazarda tutuvchi vaqtinchalik mehnat shaklidir. Bu institut ko'plab davlatlarda mehnat huquqi va ta'lim qonunchiligi doirasida tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida stajirovkaga oid huquqiy asoslar Mehnat kodeksi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tegishli qarorlari bilan belgilangan. 2022-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (2023-yil 1-apreldan kuchga kirgan) 34-moddasida mehnat shartnomasi tuzilgan shaxsning mehnati uchun haq to'lanishi majburiyligi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, Prezidentning 2022-yil 13-apreldagi PQ-190-son qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlar bilan ishlashning yangi tizimi"da ham haq to'lanadigan stajirovkalar orqali ularni ish bilan band qilish mexanizmlari mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida stajyor tushunchasiga bevosita huquqiy ta'rif berilmagan bo'lsa-da, amaliyot o'tayotgan shaxslar ayrim hollarda xodim sifatida tan olinadi. Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 17-moddasi mehnat munosabatlarning tomonlarini belgilab, ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat shartnomasi tuzilgan taqdirda mehnat huquqlari yuzaga kelishini nazarda tutadi.

2. Ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati

Haq to'lanadigan stajirovkaning joriy etilishi quyidagi ijobiy jihatlarni ta'minlaydi:

- Yoshlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytiradi. Talaba o'z bilimini amaliyotda qo'llash bilan birga, daromad topadi.

- Kasbiy ko'nikmalar shakllanadi. Bu esa bozor talablariga mos kadrlar yetishtirilishini ta'minlaydi.

- Ish beruvchilarga foyda. Stajyor orqali ish beruvchi kadrlarni tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

- Ijtimoiy tenglik ta'minlanadi. Kam ta'minlangan oila farzandlari uchun teng imkoniyat yaratiladi.

Xalqaro tajribada Germaniya, AQSh, Fransiya kabi davlatlarda haq to'lanadigan stajirovka talabalarning mehnat huquqlarini to'liq hisobga olgan holda amalga

oshiriladi. AQShda "Fair Labor Standards Act" asosida stajyorlar ish haqi va boshqa huquqlarga ega bo'ladi (U.S. Department of Labor, 2021).

3. Dolzarb muammolar va takliflar

Haq to'lanadigan stajirovka tizimining joriy etilishida bir qancha muammolar mavjud:

Normativ-huquqiy bo'shliqlar. Ba'zi holatlarda stajirovka mehnat shartnomasi asosida emas, "ko'ngillilik" asosida amalga oshirilmoqda, bu esa stajyorlarni huquqiy himoyasiz qoldiradi.

Stajyorlarning huquqiy holati quyidagi omillar orqali belgilanadi:

Mehnat shartnomasi asosida faoliyat olib borayotgan stajyorlar - bu to'liq huquqli xodim maqomiga ega bo'lib, Mehnat kodeksida belgilangan barcha huquq va kafolatlarga ega bo'ladi: ish vaqti, dam olish, mehnatga haq to'lash, mehnatni muhofaza qilish, ijtimoiy sug'urta va boshqalar.

Mehnat shartnomasi tuzmasdan faqat amaliyot o'tayotgan stajyorlar - ular odatda ta'lim muassasasi bilan tashkilot o'rtasidagi hamkorlik asosida amaliyotga yuboriladi. Bunday stajyorlar mehnat huquqi sub'ekti emas, balki o'quv jarayonining ishtirokchisi sifatida qaraladi.

Bu farqlanish ularning huquqiy maqomini noaniq holga keltirib qo'yadi, ayniqsa, ishlab chiqarish amaliyoti davomida baxtsiz hodisa ro'y bergan holatlarda yuridik javobgarlik masalalari yuzaga chiqadi. Shu sababli, stajyorlar faoliyatini aniq huquqiy maqom asosida tartibga solish zarur.

Ish beruvchilarning passivligi. Ko'plab xususiy korxonalar haq to'lash majburiyatidan qochadi.

Moliyaviy resurslarning cheklanganligi. Ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi moliyaviy mexanizm to'liq ishlamayapti.

Takliflar:

1. Mehnat kodeksiga stajyor tushunchasi va ularning maqomini ifodalovchi alohida modda kiritilishi;

2. Oliy ta'lim muassasalari, stajyor va ish beruvchi o'rtasida uch tomonlama shartnoma joriy etilishi;

3. Stajyorlar uchun minimal kafolatlar (dam olish, mehnat muhofazasi, kompensatsiya) belgilanadigan normativ hujjat ishlab chiqilishi;

4. Stajirovka paytida sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalar uchun ish beruvchining javobgarligini qonun bilan tartibga solish.

Xulosa

Haq to'lanadigan stajirovka yoshlarning nafaqat kasbiy o'sishida, balki ularning huquqiy, moliyaviy va ijtimoiy jihatdan mustaqil bo'lib borishida ham katta rol o'ynaydi. Mehnat huquqi doirasida stajyorlarning maqomini huquqiy jihatdan aniq belgilash - nafaqat ularning huquqlarini himoya qilish, balki davlatning yoshlar

siyosati samaradorligini ta'minlash uchun ham muhimdir. Normativ asoslarning mukammal bo'lmashligi nafaqat stajyorlarning huquqiy holatini zaiflashtiradi, balki ish beruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi munosabatlarni ham murakkablashtiradi. Shu bois, mehnat qonunchiligini modernizatsiya qilish va xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda stajyorlik institutini qonuniy asosda rivojlantirish zarur. Ushbu institutni samarali joriy etish uchun mehnat va ta'lim qonunchiligini uyg'unlashtirish, huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish va ish beruvchilarning mas'uliyatini oshirish zarur. Bu esa uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (yangi tahrir), 2022-yil 30-aprel.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, 2020-yil.
3. PQ-190-son Prezident qarori, 2022-yil 13-aprel.
4. U.S. Department of Labor. (2021). Fact Sheet #71: Internship Programs Under The Fair Labor Standards Act.
5. European Commission. (2020). Quality Framework for Traineeships.
6. lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi.